

Zaretdinova Nesibeli Kurbanbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpogʻ davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
mustaqil izlamuvchi
e.mail: zaretdinovanesibeli@gmail.com



QUYI AMUDARYO HUDUDINING EKOLOGIK VA DEMOGRAFIK TRANSFORMATSIYASI: KOMPLEKS YONDASHUV

Annotatsiya. Ushbu maqolada Quyi Amudaryo hududida kuzatilayotgan ijtimoiy-demografik jarayonlar va ularning oʻziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Xususan, Orol dengizi qurishi bilan bogʻliq ekologik muammolarning aholi sogʻligi, zichligi, urbanizatsiya darajasi, tabiiy koʻpayish va migratsiya jarayonlariga qanday taʼsir koʻrsatgani tadqiq etilgan. Shu bilan birga, Quyi Amudaryo geodemografik tumanidagi Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Xorazm viloyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlari oʻzaro taqqoslangan, aholi oʻrtasidagi kasallanish, oʻlim va tugʻilish dinamikasi tahlil qilingan. Mintaqaning iqtisodiy, demografik va ekologik muammolari yuzasidan tegishli tavsiya va xulosalar keltirilgan.

Аннотация. В статье анализируются социально-демографические процессы, наблюдаемые в Нижнеамударьинском геодемографическом районе, и их особенности. В частности, изучалось влияние экологических проблем, связанных с высыханием Аральского моря, на здоровье, плотность, уровень урбанизации населения, естественное воспроизводство и миграционные процессы. При этом сравнивались социально-экономические показатели Республики Каракалпакстан и Хорезмской области в Нижнеамударьинском геодемографическом районе, а также анализировалась динамика заболеваемости, смертности и рождаемости среди населения. Даны соответствующие рекомендации и выводы относительно экономических, демографических и экологических проблем региона.

Annotation. This article analyzes the socio-demographic processes observed in the Lower AmuDarya geodemographic district and their specific features. In particular, it studies the impact of environmental problems associated with the drying up of the Aral Sea on population health, density, urbanization level, natural increase and migration processes. At the same time, socio-economic indicators of the Republic of Karakalpakstan and Khorezm regions in the Lower AmuDarya geodemographic district are compared, and the dynamics of morbidity, mortality and birth rates among the population are analyzed. Relevant recommendations and conclusions are made on the economic, demographic and environmental problems of the region.

Tayanch soʻzlar: *Qoraqalpogʻiston, ijtimoiy-demografik jarayon, Quyi Amudaryo, Xorazm, Orol inqirozi, aholi zichligi, urbanizatsiya, tugʻilish, oʻlim, migratsiya, ekologik muammo, mintaqaviy rivojlanish.*

Ключевые слова: *Каракалпакстан, социально-демографический процесс, Низовья Амударьи, Хорезм, Аральский кризис, плотность населения, урбанизация, рождаемость, смертность, миграция, экологические проблемы, региональное развитие.*

Keywords: *Karakalpakstan, socio-demographic process, Lower Amu Darya, Khorezm, Aral crisis, population density, urbanization, birth, mortality, migration, environmental problem, regional development.*

Kirish. Dunyo ahamiyatiga molik tabiiy-iqlim tasnifidagi muammolar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega boʻlgan muammolarga nisbatan biroz qiyinchilik bilan hal etiladi. Respublikamizda bunday tabiiy-iqlim doirasidagi muammolarga Orol dengizining suv sathi pasayishi bilan bogʻliq ekologik muammolarni aytish mumkin. Mazkur ekologik halokat nafaqat Oʻzbekiston Respublikasi hududini, balki Turkmanistonning shimoli-sharqiy, xususan, Toshhovuz viloyati va uning atrofi hamda Qozogʻiston Respublikasining janubi-gʻarbiy mintaqalaridagi viloyatlar aholisi, ularning ijtimoiy-demografik rivojlanishida bevosita aks etmoqda.

Shuningdek, dengizning qurigan yerlaridan koʻtarilayotgan tuz va bir vaqtlar qishloq xoʻjaligida ishlatilgan ximikatlarning havoga koʻtarilishi oqibatida qum boʻronlari hosil boʻlmoqda, bu esa aholi turmush sharoitini ogʻirlashtirib, ekologik inqirozni vujudga keltirmoqda. Jahon sogʻliqni saqlash tashkilotining 2006-yil 5-iyunda chop etilgan maʼruzasida er yuzida paydo boʻladigan kasalliklarning 24 foizi, oʻlimning esa 23 foizi atrof-muhitdagi oldi olinishi mumkin boʻlgan omillarning zararli taʼsiri natijasida vujudga kelar ekan.

Shu oʻrinda aytish joizki, aholi salomatligi juda qiyin va murakkab tiklanadigan resurslardan biri boʻlib, u mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi mezon ham hisoblanadi. Orolboʻyida joylashgan hududlar aholisi salomatligi va u bilan bogʻliq muammolar mazkur mintaqa aholisining demografik vaziyatini belgilamoqda.

Maqsad va uni asoslash. Maqolada Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi demografik oʻzgarishlar, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tahlil qilinadi. Tahlil orqali har bir hududdagi muammolar (aholi soni oʻsishi, bolalar oʻlimi, migratsiya, aholi zichligi, sogʻlikni saqlashdagi muammolar va boshqalar) aniqlanadi. Bu esa siyosatchilar yoki tegishli davlat organlari uchun maʼlum bir chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydali boʻlishi mumkin. Bu turdagi tahlillar

asosida hududiy rivojlanish dasturlari, investitsiyaviy loyihalar yoki ijtimoiy sohadagi islohotlar uchun asosiy ma'lumot manbasi yaratiladi. Maqola davlat rahbariyati va mahalliy hokimiyatlar uchun qaror qabul qilishda yordamchi vazifani bajaradi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Quyidagi jadvalda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi demografik jarayonlar, ekologik inqiroz (xususan, Orol muammosi) bilan bog'liq murakkab ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatlar tahlil etilgan. Aholi sog'ligi, urbanizatsiya, migratsiya, zichlik va tabiiy o'sish kabi ko'rsatkichlar Xorazm viloyati bilan taqqoslab o'rganilgan. (1-jadval)

Ko'rsatkichlar	Qoraqalpog'iston	Xorazm
Hudud maydoni (%)	37,8%	1,3%
Aholi soni (2024, taxminiy)	2,2 mln	2,0 mln
Aholi zichligi (kishi/km ²)	9,5	242,3
Urbanizatsiya darajasi (%)	48,5%	~35%
Tabiiy ko'payish koeffitsiyenti (promille)	21,7	22,4
1 yoshgacha bolalar o'limi (10 000 ga)	Yuqori	O'rtacha
YaIMdagi ulushi (%)	6,3%	3,6%
Sanoat ulushi (%)	34,8%	52,8%
Tashqi savdo ulushi (%)	2,2%	1,4%
Salbiy migratsiya (2026, ming kishi)	-16 ming	-2,5 ming

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston hududining qariyb 38 foizini tashkil etadi va bu uni mamlakatdagi eng katta hududlardan biriga aylantiradi. Bunga qarshi ravishda Xorazm viloyati jami yer maydonining atigi 1,3 foizini tashkil etadi. Hudud kattaligiga qaramasdan, Qoraqalpog'istonda aholi zichligi juda past – har bir kvadrat kilometrda 9,5 kishi to'g'ri keladi, Xorazmda esa bu ko'rsatkich 242,3 kishini tashkil qiladi, bu esa aholi juda zich joylashganini ko'rsatadi.

Ikki hududda ham aholi soni qariyb bir xil – taxminan 2 million atrofida. Tabiiy ko'payish darajasi bo'yicha Xorazm Qoraqalpog'istondan biroz oldinda, ya'ni aholi soni tezroq o'smoqda.

Urbanizatsiya darajasi Qoraqalpog'istonda Xorazmga nisbatan yuqoriroq, bu yerda aholining qariyb yarmi shaharlarda yashaydi, Xorazmda esa bu ko'rsatkich 35 foiz atrofida. Bu Qoraqalpog'istonda infratuzilma ko'proq markazlashganini ko'rsatadi.

Ekologik omillar ta'sirida hududda Orol dengizining qurishi ekologik va demografik inqirozni keltirib chiqardi, tuz va zararli kimyoviy moddalarning havoga ko'tarilishi aholi sog'ligi va turmush darajasiga salbiy ta'sir etmoqda, kasallanish, o'lim, ayniqsa bolalar o'limi yuqori, ekologik va iqtisodiy sabablar bilan tashqi migratsiya o'smoqda, tabiiy ko'payish koeffitsiyenti kamaymoqda.

Sog'liqni saqlash sohasida esa Qoraqalpog'istonda muammolar mavjud. Bu yerda 1 yoshgacha bolalar o'limi yuqori darajada, Xorazmda esa o'rtacha holat kuzatiladi.


Iqtisodiy ko'rsatkichlarga qaralsa, Qoraqalpog'iston YaIMda ko'proq ulushga ega (6,3 foiz), Xorazmda esa bu ko'rsatkich 3,6 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, Xorazmda sanoat ulushi yuqori – 52,8 foiz, Qoraqalpog'istonda esa 34,8 foiz. Demak, Xorazm sanoati rivojlanganroq. Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston tashqi savdoda faolroq (2,2 foiz ulush), Xorazmda esa bu ko'rsatkich 1,4 foiz.

Migratsiya ko'rsatkichi ikkala hududda ham manfiy, ya'ni odamlar bu yerlardan ko'chib ketishmoqda. Qoraqalpog'istonda bu raqam – 16 mingni tashkil etsa, Xorazmda – 2,5 ming. Bu Qoraqalpog'istonda yashash sharoiti, ish o'rinlari va xizmat ko'rsatish sohalari yetarli emasligidan dalolat beradi.

Ekologik omillar ta'sirida hududda Orol dengizining qurishi ekologik va demografik inqirozni keltirib chiqardi, tuz va zararli kimyoviy moddalarning havoga ko'tarilishi aholi sog'ligi va turmush darajasiga salbiy ta'sir etmoqda, kasallanish, o'lim, ayniqsa, bolalar o'limi yuqori, ekologik va iqtisodiy sabablar bilan tashqi migratsiya o'smoqda, tabiiy ko'payish koeffitsiyenti kamaymoqda. Qoraqalpog'istonda iqtisodiy rivoj sust, eksport va investitsiya ko'rsatkichlari past.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining eng shimoliy hududlari hisoblanmish Quyi Amudaryo geodemografik tumani tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati ekologik nuqtayi nazardan og'ir sharoitda joylashganligi uning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishida ham sezilib turadi. Shu boisdan O'zbekiston hukumati xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda yerlarning qurishi, ekologik muammolarning oldini olish, aholi salomatligi doirasida ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda. Ammo shunga qaramasdan, Quyi Amudaryo geodemografik tumanidagi keskin ekologik vaziyat aholi mexanik harakatining faollashuviga, ya'ni chet davlatlarga ko'chib ketuvchilar sonining oshishi, tabiiy harakat ko'rsatkichlari pasayishi, kasallanish va kasalliklarning keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

Mazkur geodemografik tuman respublika aholisining 11,5 foizini (2007 yil) tashkil etgan bo'lsa, mustaqillik yillarida 137,8 foizga o'sdi. Ammo ushbu aholining o'sish sur'ati yuqori bo'lsa-da, umum mamlakat aholisining tobora kamayib borishi kuzatilmoqda. Masalan, 1989 yilda tuman aholisi mamlakat aholisining 15,9 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2007-yilga kelib bu raqam 11,4 foizga to'g'ri keldi. (1-rasm)



Aholisining hududiy tarkibiga ko'ra geodemografik tumanning 35,7 foiz aholisi shaharlarda yashaydi, umum respublika aholisi hududiy tarkibiga xos urbanizatsiya darajasining pasayishi mazkur mintaqalarda ham ro'y berayotganligi bois, 1989–2007-yillarda uning darajasi 2,9 punktga kamaydi.

Demak, ushbu hudud mamlakatimizning boshqa mintaqalariga nisbatan pastroq demografik ko'rsatkichlarga ega. Chunonchi, oxirgi aholi ro'yxatga olingan vaqtda demografik tuman aholisining bir yillik mutlaq ko'payishi 56,7 ming kishiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2007-yilda u 34,7 ming kishiga teng bo'lmoqda. Shu o'rinda aytish joizki, faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining mamlakat jami aholisidagi ulushi qisqarmoqda xolos.

Aholisining hududiy tarkibiga ko'ra geodemografik tumanning 35,7 foiz aholisi shaharlarda yashaydi, umum respublika aholisi hududiy tarkibiga xos urbanizatsiya darajasining pasayishi mazkur mintaqalarda ham ro'y berayotganligi bois, 1989–2007-yillarda uning darajasi 2,9 punktga kamaydi. Geodemografik tuman tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi nafaqat shahar aholisi soni ko'pligi, balki uning oshib borishi bilan ham ajralib turadi.

Quyi Amudaryo aholisining soni va salohiyati ortib borishi uning joylashuvida o'z aksini topmoqda. Shu bois, demografik tuman aholisining zichlik ko'rsatkichi tahlil etilayotgan davrda 1,3 barobarga ortdi. Bundan Xorazm viloyati aholisi zichligi 1,4 martaga ko'paygan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi zichligidan 25,7 martaga zich ekanini ko'rish mumkin¹.

Ma'lumki, Xorazm viloyati mamlakat umumiy maydonining atigi 1,3 foizida joylashgan bo'lib, aholisining tig'iz joylashuvi jihatdan respublikamizda Farg'ona va Toshkent viloyatlaridan keyin uchinchi

¹ Бектемиров К.К. Методологические основы регионального социально-экономического развития с учетом экологических особенностей территорий (на материалах Республики Каракалпакстан). Дисс. ... док. экон. наук. Нукус, 2008. – С. 350.

***Qoraqalpog‘iston
Respublikasida
aholi soni va
zichligining
oshishi aholini
sifatli ichimlik suvi
bilan ta‘minlab,
ijtimoiy-ekologik
muammolarni
keltirib chiqarsa,
Xorazm viloyatida
yuqoridagilar
bilan birgalikda
er, uy-joy, ijtimoiy
infrastruktura
masalalari dolzarb
hisoblanadi.***

o‘rinni egallaydi. Ayni vaqtda, Qoraqalpog‘iston yer maydonining kattaligi aholining juda siyrak joylashuvini taqozo etadi. Shuningdek, Mo‘ynoq, Taxtako‘pir, Qo‘ng‘irot tumanlari aholisining o‘rtacha zichligi mamlakatimizda eng kichik, ya‘ni 1-3 kishi atrofida ekanini ko‘ramiz. Holbuki, mazkur tumanlar har birining maydoni O‘zbekistondagi bitta yoki ikkita viloyat maydoniga tengligini hisobga oladigan bo‘lsak, hududdagi aholi joylashuvidagi xususiyat yanada oydinlashadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi soni va zichligining oshishi aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta‘minlab, ijtimoiy-ekologik muammolarni keltirib chiqarsa, Xorazm viloyatida yuqoridagilar bilan birgalikda yer, uy-joy, ijtimoiy infrastruktura masalalari dolzarb hisoblanadi. Shu boisdan ham O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 8-iyundagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar hamda suv taqchilligi oqibatlarini yengillashtirish to‘g‘risida”gi 249-son qarori² qabul qilinganligi bu muammolar echimini topishga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Quyi Amudaryo geodemografik tumani aholisi yuqorida keltirilgan umummamlakat miqyosida aholisida sonining kamayishi uning tabiiy harakat koeffitsiyentlari qisqarishi bilan ham chambarchas bog‘liq. Masalan, tuman aholisining 48,3 foizini qamrab olgan Xorazm viloyati aholisining tabiiy ko‘payish koeffitsienti tadqiqot davrida (1989–2007-yillar) 10,2 promillega, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi 35,1 promillega kamaydi. Ammo aholi tabiiy ko‘payish koeffitsiyentlaridagi pasayish jarayoni aholi sonining yildan-yilga oshib borishiga keskin ta‘sir etganicha yo‘q³.

Demografik manbalardagi aholining tabiiy ko‘payish koeffitsiyentini sifat jihatidan baholash maxsus shkalasiga muvofiq, mazkur geodemografik tuman aholisi juda tez ko‘payayotgan hududlarga mos keladi. Chunki har ikkala hudud aholisining tabiiy ko‘payishi umummamlakat aholisi tabiiy ko‘payish (15,6 promille, 2006-yil) ko‘rsatkichidan yuqori yoki 16 promilledan baland⁴.

Quyi Amudaryo geodemografik tuman aholisining hududiy tarkibi va tabiiy harakati⁵, aholi tabiiy harakatining kattaligi demografik

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida aholini ijtimoiy muhofaza qilishga qo‘shimcha doir chora-tadbirlar hamda suv taqchilligi oqibatlarini yengillashtirish to‘g‘risida” qarori // <https://lex.uz/uz/docs/2296595>.

³ Численность населения Республики Узбекистан 2004-yil ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan // <https://stat.uz/uz/>

⁴ Статистический сборник. – Ташкент, 2005. – В. 44 ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

⁵ Социальное развитие и уровень жизни населения в Узбекистане 2006.

jarayonlardan tug'ilish va o'lim ko'rsatkichi bilan bog'liq. Chunonchi, yildan yilga aholining tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari pasayib borayotgani, bozor munosabatlari vujudga kelishi tufayli insonlarning oiladagi farzandlar soniga bo'lgan fikri va maylidagi o'zgarishlar, sog'liqni saqlash sohasida erishilayotgan yutuqlar bilan belgilash to'g'ri bo'ladi. Demografik jarayonlardan aholi o'limi har qanday mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi mezon bo'lgani sababli, mustaqillik davrida bu jarayonning ijobiy tomonga o'zgarishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda tug'ilish koeffitsiyentlarining qisqarishi ham o'lim holatining eng past darajasiga erishishda bosh omildir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining geografik joylashgan o'rni mamlakatimizning ekologik vaziyati, yashash sharoiti og'ir mintaqalariga to'g'ri kelishi aholining kasallanish va o'lim ko'rsatkichi yuqoriligida ham o'z aksini topmoqda. Shuning uchun mazkur mintaqalar boshqa viloyatlar ichida bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi koeffitsiyentining yuqoriligi bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Qolaversa, bir yoshgacha bo'lgan bolalarda nafas a'zolari kasalligidan har 10 000 chaqaloqqa nisbatan o'lgan bolalarning eng ko'pi Xorazm viloyatida qayd etiladi. Xuddi shu kasallik sababli vafot etgan turli yoshdagi aholining o'lim ko'rsatkichi esa Qoraqalpog'istonda eng yuqori ekani bilan ko'zga tashlanadi.

O'rganishlardan xulosa qilish mumkinki, tadqiqot obyektiining demografik jarayonlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tobora kamayib, sondan sifat tomonga burilish davriga kira boshladi. Biroq mintaqaning ekologik vaziyati mahalliy va xorij investitsiyalarini jalb etish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ekologik muammolarni hal etish yo'llarini takomillashtirishni talab etadi. Chunki o'sib borayotgan aholining sog'lom turmush tarzini vujudga keltirish, sog'lom, yetuk insonlarni yetishtirish har qanday hududning ustuvor vazifalaridan biridir.

Quyi Amudaryo mintaqasining iqtisodiy geografik muammolari milliy iqtisodiyotni mustahkamlashda uning geosiyosiy tizimining uzviy qismi bo'lgan har bir mintaqaning o'ziga xos o'rni bor. Shu jihatdan Quyi Amudaryo iqtisodiy tumani ham respublika miqyosidagi hududiy mehnat taqsimotida sanoat va qishloq xo'jaligining ba'zi tarmoqlariga ixtisoslashuvi asosida alohida ajralib turadi.

Quyi Amudaryo O'zbekiston Respublikasining shimoli-g'arbiy chekkasida, mamlakatimizning asosiy markazlaridan uzoqda joylashgan. Mintaqaning geografik jihatdan uzoqdaligi, binobarin, transport xarajatlarining ko'pligi uning:

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining geografik joylashgan o'rni mamlakatimizning ekologik vaziyati, yashash sharoiti og'ir mintaqalariga to'g'ri kelishi aholining kasallanish va o'lim ko'rsatkichi yuqoriligida ham o'z aksini topmoqda.

Bir vaqtlar, ya'ni daryo tsivilizatsiya va sug'orma dehqonchilik madaniyatining rivoj topgan davrida bu gidrografik omil hozirgi tuman hududini, xususan, qadimiy Xorazmni chindan ham mashhur qilgan, uni jahonning savdo va fan taraqqiyoti markazlaridan biriga aylantirgan.

- iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning imkon qadar kompleks tashkil etilishini, uzoqda joylashganligi esa ma'lum ma'noda iqtisodiy jihatdan mustaqil rivojlanishini;

- respublika mehnat taqsimoti doirasida bozorga mo'ljallangan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini;

- mamlakatimiz uchun muhim, noyob va strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlar rivojlanishini taqozo etadi.

Quyi Amudaryo mintaqasi mamlakatimiz chekkasida, xorijiy davlatlarga chiqish (kirish) nuqtasida joylashganligi:

- uning tranzit imkoniyatlaridan samarali foydalanishga;

- xalqaro bozorga mo'ljallangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqish, chegaraning bog'lovchi (kontakt) salohiyatidan foydalanib, erkin iqtisodiy mintaqalarning turli yo'nalishlarini shakllantirishga qulay sharoit yaratadi.

Shu bilan birga, tuman o'z nomi bilan O'rta Osiyoning tarixiy geografik rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan Amudaryo (Oks) ning quyi qismida joylashganini ham e'tiborga olish kerak. Bir vaqtlar, ya'ni daryo tsivilizatsiya va sug'orma dehqonchilik madaniyatining rivoj topgan davrida bu gidrografik omil hozirgi tuman hududini, xususan, qadimiy Xorazmni chindan ham mashhur qilgan, uni jahonning savdo va fan taraqqiyoti markazlaridan biriga aylantirgan. Shu o'rinda e'tirof etish joizki, agar Misr o'zining tarixiy olamshumul ahamiyati bilan Nil daryosiga bog'liq bo'lgan bo'lsa, Xorazm (bu yerda u hozirgi ma'muriy viloyat emas, keng, tarixiy-geografik ma'noda) ham Oks daryosidan minnatdor bo'lgan. Yunon faylasufi Misrni Nilning tuhfasi deb ta'riflagan bo'lsa, biz ham Xorazmni Oksning sovg'asi, deb atashimiz mumkin.

Biroq mintaqa haqiqatan ham hozirgi kunda Quyi Amudaryo, ya'ni Amudaryoning quyilish qismida ekanligi biroz shubhali ko'rinadi. Birinchidan, bu daryo deyarli quyilmayapti, Orol dengizi undan "qochayapti", ikkinchidan, tumanning katta qismi, xususan, Ustyurt va o'ng sohilda joylashgan hududlarga daryoning ta'siri deyarli yo'q, ammo ularga qurib, tobora chekinib borayotgan Orolning ekologik ta'siri kuchaymoqda.

Shu jihatdan tumanning aynan Orolbo'yi va uning ta'sir doirasida joylashganligi hududning rivojlanish strategiyasini aniqlash, tutash davlatlarning mintaqaviy siyosatini amalga oshirish, ayniqsa ijtimoiy manfaatlarga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirishda, ekologik infratuzilmani shakllantirishda hisobga olishni zarur qilib qo'yadi. Demak, uzoq tarixiy jarayonda, mintaqaning gullab-yashnashi ham, uning hozirgi holati ham ko'p jihatdan Amudaryoga bog'liq bo'lgan. Shu bois, uni "Quyi Amudaryo tumani" deb atash har tomonlama to'g'ri. Ayni chog'da

koʻhna Xorazmda Quyi Amudaryo vohasi va unga tutash hududlarning tili, madaniyati, mentalitetining maʼlum darajada saqlanib qolganligi ham qisman uning geografik oʻrni bilan izohlanadi. Viloyat choʻl hududlari bilan oʻralganligi, boshqa voha va vodiylardan uzoqda, alohida joylashganligi oʻtmishda harbiy-strategik mazmun kasb etgan. Hozirgi kunda Quyi Amudaryo iqtisodiy tumani katta ishlab chiqarish salohiyatiga ega emas: uning hissasiga Oʻzbekiston yalpi ichki mahsulotning 6,3 foizi, sanoat maxsulotining 9,9 foizi toʻgʻri keladi (taqqoslash uchun: tumanning mamlakat aholisidagi hissasi 11,5 foizga teng). Quyi Amudaryoning tashqi iqtisodiy faoliyati ham sust, u mamlakat tashqi savdo aylanmasining bor-yoʻgʻi 2,2 foizini, shu jumladan, eksportning 2,9, importning 1,1 foizini taʼminlaydi. Bu erda qulay investitsiya makoni endi shakllanmoqda. Binobarin, qoʻshma korxonalar soni ham uncha koʻp emas, tumanda mustahkam yoqilgʻi-energetika hamda qurilish bazasi shakllanmagan va h. k. Jahon mamlakatlarida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash tajribasi nuqtayi nazaridan Quyi Amudaryo tumani sust rivojlangan hudud hisoblanadi. Shu bilan birga uni depressiv va muammoli tumanlar qatoriga qoʻshish ham mumkin. Mintaqaning hozirgi depressiv vaziyati uning qachonlardir rivojlanganligi va bugungi sharoitda shunday vaziyatga tushib qolganligini anglatadi, tuman oʻz muammolarini oʻzi hal qila olmasligi va bu borada davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi hamda “homiy”lar koʻmagi lozimligini nazarda tutadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan soʻng mintaqalar ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishiga, jumladan, Quyi Amudaryo tumanida xoʻjalik turli tarmoqlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berildi⁶. Ayniqsa, mamlakatimizning transport xavfsizligini taʼminlash maqsadida Quyi Amudaryoni respublikamizning ichki hududlari bilan temiryoʻl orqali bogʻlanishi hamda Orolboʻyi mintaqasida ijtimoiy ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi diqqatga sazovor.


Iqtisodiy tuman, umuman olganda, maʼlum darajada oʻzining mineral xomashyo va mehnat salohiyatiga ega. Biroq bu imkoniyatlar ichki jihatdan uning turli qismlarida bir xil emas. Eng avvalo, mintaq ikki, bir-biridan katta farqlanuvchi hududlaridan iborat ekanini taʼkidlash joiz. Bu borada Qoraqalpogʻiston Respublikasi faqat maydoni boʻyicha Oʻzbekistonda birinchi, qolgan barcha sohalarda eng oxirgi oʻrinda. Masalan, jon boshiga hisoblaganda, yalpi ichki mahsulot, sanoat va

Hozirgi kunda Quyi Amudaryo iqtisodiy tumani katta ishlab chiqarish salohiyatiga ega emas: uning hissasiga Oʻzbekistonda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning 6,3% i, sanoat maxsulotining 9,9% i toʻgʻri keladi (taqqoslash uchun: tumanning mamlakat aholisidagi hissasi 11,5% ga teng).

⁶ Ж.Н.Узоқов Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. — №6/2 (115). — Хоразм: Маъмун академияси, 2024.

qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, tashqi savdo aylanmasi, chakana savdo va aholiga pulli xizmat ko'rsatishda u respublikada o'rtacha ko'rsatkichda 3-4, hatto 7-8 marta (tashqi savdo hajmi bo'yicha) orqada. (2-rasm)


***Qoraqalpog'iston
Respublikasi
ma'muriy jihatdan
14 ta qishloq
tumanlaridan
iborat. Ammo,
ularning
"zichligi" juda
past va tumanlar
o'zlarining hudud
kulami bo'yicha
bir – biridan katta
farq qiladi.***



Lekin Qoraqalpog'iston Xorazm viloyatidan o'zining qazilma boyliklari, xususan, tog'-kon, kimyo xomashyosi hamda kelajakda aniqlanishi kutilayotgan neft gaz konlariga boy. Bu imkoniyatlar uning iqtisodiy rivojlanishining muhim omili bo'lib xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Qurilishi tugatilgan Qo'ng'irot soda zavodi, Ustyurt platosida olib borilayotgan geologik qidiruv ishlar, Chimboy-Taxtakopir hududidagi turli tuz konlaridan foydalanish, transport va ijtimoiy infratuzilma tizimini yaratish bu borada katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy jihatdan 14 ta qishloq tumanlaridan iborat. Ammo ularning "zichligi" juda past va tumanlar o'zlarining hudud kulami bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Masalan, eng katta Qo'ng'irot (76,0 ming kv. km) va eng kichik Shumanay (0,63 ming kv. km) tumani o'rtasidagi farq yoki hududning "geografiylik" koeffitsiyenti 120,6ga teng. Agar Qo'ng'irot, Mo'ynoq (37,0 ming kv. km) va Taxtakopir (21,1 ming kv. km.) tumanlarini birga hisoblasak, shu 3 tumanga Qoraqalpog'iston hududining 80,2 foizi, butun O'zbekiston Respublikasi maydonining 30 foizi to'g'ri keladi. Vaholanki, bu erda mintaqaning 11,5 foizi, mamlakatning 0,7 foiz aholisi to'g'ri keladi, xolos.

Demografik salohiyati bo'yicha eng katta Taxtako'pir tumani (167,3 ming kishi), eng kichigi Mo'ynoq (28,4 ming kishi); ular o'rtasidagi farq 5,9 barobarga teng. Qator qishloq va tumanlarida, masalan, Mo'ynoq, Qorao'zak, Qonliko'l, Nukus, Taxtako'pir va Shumanay tumanlarinig har birida aholi soni 50 ming kishiga ham yetmaydi. (3-rasm)



Qoraqalpog'istonning umumiy urbanizatsiya darajasi, turli obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, nisbatan yuqori. Bu yerda mavjud 12 ta shahar va 15 ta shaharchalarda 767,5 ming kishi yoki jami aholining 48,5 foizi yashaydi, o'rtacha har bir shahar tipidagi manzilgohga 28,4 ming kishidan to'g'ri keladi.

Qoraqalpog'istonning umumiy urbanizatsiya darajasi turli obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, nisbatan yuqori. Bu erda mavjud 12 ta shahar va 15 ta shaharchalarda 767,5 ming kishi yoki jami aholining 48,5 foizi yashaydi, o'rtacha har bir shahar tipidagi manzilgohga 28,4 ming kishidan to'g'ri keladi.

Aksariyat shahar va shaharchalar tuman ma'muriy markazi vazifasini bajaradi. Ammo ularning bu xususdagi salohiyati turlicha: Xo'jayli, Chimboy va Mo'ynoq tumanlarining markazlarida jami aholining deyarli yarmi, To'rtko'l va Beruniyda taxminan uning 1/3 qismi yashasa, Ellikqal'a tumanining markazi – Bo'stonda mazkur tuman aholisining 11,3 foizi to'g'ri keladi.

Qoraqalpog'istonning shaharlar tizimida Nukus aglomeratsiyasi keskin ajralib turadi. Quyi Amudaryo iqtisodiy tumanida Xorazm viloyati ko'p jihatdan Qoraqalpog'istonning aksi hisoblanadi. Chunonchi, uning maydoni juda kichik (bu borada u Sirdaryo va Andijon viloyatlaridan oldinda, xolos), aholi esa o'ta zich (1 kv. km. ga 242,3 kishi, Qoraqalpog'istonda 9,5 va O'zbekiston Respublikasida o'rtacha 59,4 kishi). Viloyatda mineral xomashyo zaxiralari deyarli yo'q. Shu bois, bu yerda og'ir sanoat tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatlari nihoyatda cheklangan. Biroq bu yerda mehnat resurslari ko'p bo'lib,

***Xorazm viloyati
sanoati ko'p
tarmoqli emas.
2006-yil yakunlari
bo'yicha
jami ishlab
chiqarilgan sanoat
mahsulotining 52,8
foizi yengil sanoat
zimmasiga tushadi.***

ular mehnat sig'imi yuqori bo'lgan engil va og'ir sanoat hamda sug'orma dehqonchilik tarmoqlarini rivojlantirishga qulay sharoit yaratadi.


Xorazm viloyatida "iqtisodiy zichlik" ham ancha yuqori. Masalan, uning hissasi respublika umumiy maydonining 1,3 foiziga teng bo'lgan holda, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 3,6 foizi, shu jumladan qishloq xo'jalik mahsulotining 6,5 foizi shu hudud hissasiga to'g'ri keladi. Aytish mumkinki, bu yerda intensiv darajada rivojlanayotgan agroiqtisodiyot majmuasi mavjud.

Ammo iqtisodiy-demografik tahlil Xorazm viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan nisbiy ko'rsatkichlarning ancha pastligidan dalolat beradi. Chunonchi, qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan tashqari, qolgan barcha ko'rsatkichlar respublika o'rtacha darajasidan 2-4 marta past. Yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, tashqi savdo kabi sohalarda viloyat O'zbekiston mintaqalari orasida o'rtachaga yaqin mavqeda turadi. Uning hissasiga respublika tashqi savdo aylanmasining 1,4 foizi, eksportining 1,9 foizi va importining 0,6 foizi tug'ri keladi, xolos, investitsiya hajmi bo'yicha esa bu ko'rsatkich 2,9 foizga teng (2006 y.).

Xorazm viloyati sanoati ko'p tarmoqli emas. 2006-yil yakunlari bo'yicha jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining 52,8 foizi engil sanoat zimmasiga tushadi. Qoraqalpog'istonda ushbu sanoat tarmog'ining ulushi 34,8 foiz va O'zbekiston Respublikasida o'rtacha 14,6 foiz. Viloyat aholisi boshqa mintaqalarga qaraganda biroz tezroq usmoqda. Bu asosan tug'ilish koeffitsiyentining nisbatan yuqori 22,4 foiz, (O'zbekiston Respublikasi – 20,7 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 21,7 foiz) va ayni vaqtda tashqi migratsiya salbiy qoldig'ining birmuncha kamligi bilan tavsiflanadi. Jumladan, 2006-yilda mamlakatimizda tashqi migratsiya qoldig'i minus 65,5 ming kishi (2005-yilda 101,6 ming kishi) bo'lgan holda, ushbu ko'rsatkich Xorazmda minus 2,5 ming kishini tashkil etgan.

Qoraqalpog'iston esa bu borada ancha "faol" – respublika salbiy migratsiya qoldig'ining deyarli $\frac{1}{4}$ qismini ta'minlaydi. Viloyatda Qoraqalpog'istonda bo'lganidek, ekologik omillar ta'sirida nozogeografik vaziyat ham uncha sog'lom emas. Bu yerda aholining kasallanishi (birinchi marta tashxis asosida qayd qilingan bemorlar) har 10 ming kishiga hisoblaganda, Xorazmda 2006-yilda 6009 kishi bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich Qoraqalpog'istonda 4448, mamlakatda o'rtacha 4736 kishini tashkil qiladi. Bir yoshgacha bo'lgan go'daklar o'limi Qoraqalpog'istonda 17,1 foiz, Xorazm viloyatida 16,9 promille, respublikada o'rtacha 14,5 foiz ga teng bo'lgan. (4-rasm)

Xorazm, Qoraqalpog'iston va O'zbekistonda Kasallanish va Go'daklar O'limi



Geografik jihatdan Xorazm viloyatining o'ziga xos tomoni shundaki, u ichki tafovutlarga boy emas. Bu viloyat maydonining (kichik o'ng sohilini hisobga olmaganda) bir tekis o'zlashtirilganligi bilan bog'liq.

Geografik jihatdan Xorazm viloyatining o'ziga xos tomoni shundaki, u ichki tafovutlarga boy emas. Bu viloyat maydonining (kichik o'ng sohilini hisobga olmaganda) bir tekis o'zlashtirilganligi bilan bog'liq. Shu bois, mavjud 10 ta qishloq tumanlarining maydoni va aholisining soni bo'yicha katta farq qilmaydi. Xazorasp va Xiva tumanlarida, mos holda, 196 000 va 186 000 kishi yashaydi, faqat Yangiariq va Yangibozor tumanlari aholisi 100 ming kishidan kam (87,6 ming va 67,7 ming kishi).

Xorazm viloyati umumiy urbanizatsiya darajasi bo'yicha ham Qoraqalpog'istonning aksi: bu yerda faqat 3 ta shahar (shaharlar soniga ko'ra O'zbekistonda eng oxirgi o'rinda) va 7 ta shaharcha mavjud bo'lib, ularda 324,6 ming kishi yoki viloyat jami aholisining 22 foizi yashaydi (O'zbekistonda 35,9 foiz). Viloyat iqtisodiy geografik makoni asosini Xorazm "ichki halqasi": Urganch – Xonqa – Xazorasp – Bog'ot – Yangiariq – Xiva – Qo'shko'pir – Shovot – Gurlan – Yangibozor – Urganch tashkil qiladi. Albatta, mintaqaning urbanistik tarkibida Urganch (135,2 ming kishi) va Xiva (52,4 ming kishi) shaharlari ajralib turadi.

Shunday qilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati qator ko'rsatkichlari bo'yicha ancha farq qilsa-da, ular ayni vaqtda bir-birini to'ldiradi. Chunki hududning geografik xususiyatlari ham ushbu ma'muriy birliklarni iqtisodiy jihatdan aloqadorlikda rivojlanishini talab qiladi. Yagona iqtisodiy mintaqani shakllantirish imkon doirasida o'zaro ichki integratsiya jarayonlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Ushbu hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy strategik yo'nalishlarini, umumiyliги esa uning iqtisodiy geografik va geosiyosiy o'rni hamda demografik va geokologik vaziyati xususiyatlariga asoslanadi.

Yakuniy qism. Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy-demografik jarayonlari ekologik, iqtisodiy va demografik omillar bilan

***Respublikaning
iqtisodiy
rivojlanishida esa
ishlab chiqarish
salohiyati past,
sanoat va qishloq
xo'jaligining
ishlab chiqarish
ko'rsatkichlari
respublika
o'rtachasidan
orqada turadi.
Hududning
strategik va
geografik
ahamiyatiga
qaramasdan,
ijtimoiy-iqtisodiy
va ekologik
muammolar uning
rivojlanishini
cheklamoqda.***

o'zaro bog'liq. Orol dengizi qurishi va tabiiy resurslarning kamayishi, shuningdek, atrof-muhitning buzilishi aholining turmush sharoitini og'irlashtirgan, bu esa ko'chish va kasalliklarining ko'payishiga olib kelgan. Qoraqalpog'istonning demografik holati yuqori tug'ilish koeffitsiyenti va migratsiyaning salbiy oqibatlari bilan bog'liq.

Respublikaning iqtisodiy rivojlanishida esa ishlab chiqarish salohiyati past, sanoat va qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish ko'rsatkichlari respublika o'rtachasidan orqada turadi. Hududning strategik va geografik ahamiyatiga qaramasdan, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar uning rivojlanishini cheklamoqda.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining o'zaro integratsiyasini kuchaytirish zaruriyati ham ushbu hududlarning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy-demografik jarayonlarining yaxshilanishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining ijtimoiy-demografik va ekologik vaziyatlari o'rtasida ko'plab o'xshashliklar va farqlar mavjud. Bunday muammolarning asosiy sababi, bundan oldin O'zbekistonda amalga oshirilgan agrar-iqtisodiy siyosatning natijalari bilan bog'liq. Bulardan asosiysi – paxta ishlab chiqarish va sug'orishga asoslangan qishloq xo'jaligi siyosati bo'lib, bu joylarda ekologik va ijtimoiy muammolarga olib kelgan.

Qoraqalpog'istonda aholi kamayishi va ekologik inqirozlarning chuqurlashuvi aholining salomatligiga salbiy ta'sir qilgan. Orol dengizi suvining kamayishi natijasida hududda bo'lgan ekologik inqirozlar aholining sog'lig'ini murakkablashtirgan, shu bilan birga migratsiya harakatlariga ham sabab bo'lgan.

Xorazm viloyatida esa shunday ekologik muammolar kamroq, ammo aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot va sanoat ishlab chiqarishda ko'rsatkichlar iqtisodiy ko'rsatkichlarning respublika o'rtacha darajasidan 2-4 marta pastligi kuzatilmoqda. Shuningdek, migratsiya va aholining kasallanish ko'rsatkichlari ham yuqori ekan.

Shuningdek, Qoraqalpog'istonda ijtimoiy infratuzilmaning muammolari, qurilish va energetika bazasining zaifligi ham hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini to'sadi. Bu yerdagi iqtisodiy imkoniyatlar ham bir xil emas, hududning farqli iqtisodiy salohiyatlari va resurslari mavjud, shuning uchun qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatishning rivojlanishidagi kerakli infratuzilma muammolarini hal qilish zarur.

Ushbu hududlarning ijtimoiy-demografik rivojlanishi, ekologik va iqtisodiy muammolarni yechish uchun, davlat tomonidan strategik yo'nalishlar va ularning o'zaro integratsiyasini ta'minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бектемиров К. К. Методологические основы регионального социально-экономического развития с учетом экологических особенностей территорий (на материалах Республики Каракалпакстан). Дисс... док. экон. наук. – Нукус, 2008. – С. 350.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar hamda suv taqchilligi oqibatlarini yengillashtirish to'g'risida" qarori // <https://lex.uz/uz/docs/2296595>
3. Численность населения Республики Узбекистан 2004-йil ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan // <https://stat.uz/uz/>
4. Статистический сборник. – Ташкент, 2005. – С. 44 ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.
5. Социальное развитие и уровень жизни населения в Узбекистане. – Ташкент, 2006.
6. J. N. Uzoqov Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. – №6/2 (115). – Xorazm: Ma'mun akademiyasi, 2024.